

## TARIX FANINI O’QITISH :SAMARALI USULLAR VA METODLAR

**Jaxparova Nigora Ashurxon qizi**

*Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy jamiyat ta’lim tizimida gumanitar fanlar xususan tarix fanlarini o’qitishdagi samarali metodlar, tarixiy tahliliy hujjatlar va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda fanni chuqur o’zlashtirish yo’llarini ko’rib chiqamiz.

**Kalit so’zlar:** virtual ekskursiyalar, vektorinalar, rolli o’yinlar, xronologik tahlillar, ekvivalentlik .

### **KIRISH**

Tarix fanini o’qitish murakkab lekin qiziqarli jarayon bo’lib bu katta sinf o’quvchilarini tanqidiy fikrlash, sabab- natija bog’liqliklarini tahlil qilish va o’z fikrlarini erkin bayon eta olish xususiyatlarini shakillantib boradi.

Shuning uchun darslar nafaqt faktlarni o’rgatish emas balki mustaqil tarixiy jarayonlarni tahlil qilish konikmalarni shakillantirishga qaratilishi lozim.

Tarix darslarini o’qitishda samarali metodlar

1. Muommoli ta’lim usuli

O’quvchilarga aniq bir tarixiy muommoni hal qilish yoki voqeani turli nuqtai nazardan baholash topshirig’I beriladi

Misol “Agar birinchi jahon urishi yakunida uchlar ittifoqi galaba qozonganda dunyo siyosatida xaritasida qanaqa o’zgarishlar sodir bo’lishi mumkin edi.”

Ushbu usulda o’quvchilar ortasida ijobiy va tanqidiy fikrlashda tahlil qila olish qobiliyati shakillanadi.

2. Tarixiy tahlilva hujjatlar bilan ishlash

O’quvchilar tarixiy hujjatlar, xaritalar, suratlar, gazeta maqolalari yoki xotiralar bilan ishlash orqali tarixiy jarayonni chuqurroq tushunadilar.

Misol: Amir Temuring davlat boshqaruvi usullari uning davlatini osha davrdagi pozitsiyasini o’rganish va tahlil qilish uchun aynan o’sha davr ijodkorlarining asarlariga murojat qilish osha davrning muhitini his qilish imkoniyatini oshiradi

3. Raqamli texnologiyalardan foydalanish

Zamonaviy texnologiyalar yordamida tarix darslarini yanada jonli va interaktiv qilish mumkin

Interaktiv taqdimotlar va vedeodarslar

O’quvchilar tarixiy voqealarni vizual ravishda ko’rishlari

Onlayn testlar va vektorinalar-bilimlarni mustahkamlash uchun

Virtual ekskursiyalar -muzeylar va tarixiy joylarning onlayn sayohatlar.

4. Rolli o’yinlar va tarixiy debatlar

O’quvchilar muayyan tarixiy shaxs yoki davr vakili rolini o’ynab ularning qarorlarini tushunishga harakat qiladilar.

Misol: Versal konferensiyasi (1919) bo'yicha bahs tashkil qilish va har bir davlat vakillariga alohida rol berish.

Ushbu metod o’quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va tarixiy jarayonlarga qiziqish uyg’otadi.

#### 5.Tarixiy va zamonaviy voqealar o’rtasidagi bog’liqliknini tushuntirish

Tarixiy voqealarni hozirgi dunyo bilan bog’lash orqali o’quvchilarni tarixga bolgan qiziqishini oshirish .

Misol: XXasrdagi iqtisodiy inqirozlar va bugungi kundagi iqtisodiy muommolarni solishtirish

#### 6.Mustaqil tadqiqot va loyiha ishlari

O’quvchilarga muayyan tarixiy mavzuda tadqiqot o’tkazish va taqdimot tayyorlash vazifasini berish

Misol: ”Buyuk ipak yo’lining O’zbekiston tarixiga ta’siri “mavzusidagi loyiha ishini tayyorlash.

#### 7.O’quvchilarning faolligini o’shirish.

##### Tarixiy tadqiqotlar olib borish

Misol: Biror mavzuga aloqador bo’lgan biror tarixiy buyum (kiyim, taqinchoq, bo’lishi mumkin yoki shunga yaqinroq ) bilan o’quvchilar bilan birlashtirishda tadqiqot ishini olib borish mumkin.

Bu o’quvchilar ortasida qiziqishga va turli xil fikr almashishga yordam beradi

#### 8.Portfolio baholash.

Bu usulni o’quvchilarda qo’llash orqali ulardagagi ijodkorlik faoliyatini ham oshirish aniqlash mumkin bo’ladi.

O’quvchilar orasida sust o’zlashtiruvchi oquvchilarni baholash uchun yaxshi metod sifatida foydalanish mumkin .O’quvchining chorak davomidagi ( yil davomida hafta yoki oy davomidagi ishlarini jamlanmasi sifatida foydalansa ham bo’ladi) amalga oshirgan ishlarini umumiylashtirish amaliy ishlariga bonus sifatida baholanishi yoki rahbatlantirilishi ham o’quvchida fanga bo’lgan qiziqishini oshirishga imkon beradi.

Tarixni o’qitishda yangi metodlar va yondashuvlar an ‘anaviy yondashuvlarriga qaraganda samaraliroq bolib o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishini oshiradi.

Interfaol metodlar texnologiyalardan foydalanish , tanqidiy fikrlashning rivojlanishi va baholash tizimini takomillashtirish tarix fanining yanada chuqur o’zlashtirilishini taminlaydi .

Zamonaviy talim tizimida tarix fani nafaqat fakt va sanalarni yodlash balki o’quvchilarning tanqidiy fikrlashini tahliliy yondashuvini va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakillantirish uchun xizmat qilishi lozim .Shuning uchun ham ushbu ko’rsatilgan metodlar va interaktiv yondashuvlardan foydalanish fanning o’zlashtirish samaradorligini oshirish uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

Tarix fani talim tizimining muhim qismi bolsada uni oqitishda faqat sanalar va voqealarning yodlamishiga urgu berilishi o’quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga to’sqinlik qilmoqda.

Ko’pgina dars mashg’ulotlarida tarixiy voqealar, sanalar va shaxslarning ismlarini yodlashga urgu beriladi, lekin ularning sabablarini va oqibatlarini tushuntirish yetarli darajada amalga oshirilmaydi.

Tarixiy voqealar bir tomonlama tahlil qilinadi yoki bazi hollarda hukumat nuqtai nazari asosida o’qitiladi, darslar davomida orgatiladigan malumotlar va voqealar real hayot bilan bog’lanmaydi va hozirgi kun holati bilan taqqoslashtirilmaydi bu esa o’quvchilarda olingan malumotni hayotga tatbiq etishda qiyinchiliklar tug’diradi. Natijada o’quvchi tarix fanlarini eskilikning bir qismi va zerikarli holda qabul qilishi mumkin. Bazi maktab darsliklarida malumotlarning haddan tashqari kopligi bolaning bilimni mukammal o’zlashtira olmasligiga va miyya faoliyatini charchashiga ham olib kelishi mumkin.

Bu kabi muommolarning oldini olish uchun har bir pedagog Tarix fanini o’qitishda yuqorida ko’rsatilgan kabi metodlardan samarali foydalanishga harakat qilishi lozim.

Tarix fanlarida innovatsion usullardan foydalanish, yangi metodlar va yondashuvlarni ishlab chiqish boshqa fanlar bilan o’zaro aloqani yo’lga qo’yan holda o’qitilishi talim tizimida ozining sezilarli samaradorligini ko’rsatish imkonini beradi.

Zero mustaqil fikrga ega bo’lgan va hayotga o’z intilishlariga va o’z o’rniga ega bolgan kadrlarni tayyorlash talim tizimining eng asosiy va ustuvor maqsadidir.

Tarix bir millatning bir xalqning o’tmish an’analarini hayot tarzini tolaqonli aks ettiruvchi fan nafaqat fan balki bu butun bir davlatning siyosatning bir qismidir.

“Tarixiy xotirasiz kelajak yuq “ birinchi prezidentimiz I.A.Karimovga tegishli ushbu so’zlar ham jamiyat uchun xalq uchun tarixning ahamiyati qanchalik buyuk ekanligini o’zida yaqqol aks ettirgan.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki tarixni o’qitish usullari doimiy ravishda rivojlanib, yangilanib borishi lozim. Zamonaviy ta’lim jarayonlarida interfaol va innovatsion metodlar hozirgi internet asrida o’quvchilarni kitobga bo’lgan qiziqishini bir muncha oshirishga imkoniyat yaratadi.

Shuningdek tarixiy jarayonlarni visual holda tasavvur qilish uchun interaktiv xaritalar, virtual ekskursiyalar va zamonaviy raqamli resurslardan foydalanish darslarni yanada samarali qilish imkonini beradi.

Shu sababli, tarixni o’qitishda turli metodlardan uyg’un holda foydalanish zarur.

Bu nafaqat bilim darajasini oshirishga, balki tarix fanining jamiyatdagi ahamiyatini chuqr anglashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

- 1.Jahon tarixi darslik kitobi / M.Lafasov. O’zbekiston Toshkent 2018 ;
- 2.O’zbekiston tarixi ( o’rta asrlardagi )/ Muhammadjonov 2017;

- 3.Jahon tarixi yangi davr / SH.Ergashev
- 4.Tarixiy xotirasiz kelajak yuq/ I.A.Karimov 1998;
- 5.Tarixni o’qitish metodikasi rivojlanish tarixidan / Joldasov Ixtiyor Suyundikovich  
2020;